



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni

mazuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«MUHAMMAD RIZO OG‘AHIYNING O‘ZBEK
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent – 2020

qo'llanadi. Shuningdek, gullar sof muhabbat ramzi, oshiq uchun dil izhorining vositasi bo'lib keladi. Gul obrazi ko'pincha gender talqinga ega. U orqali ko'proq xotin-qizlarning sifatlari, ko'rinishi, go'zalligi, latofati, xarakter-xususiyati ochib beriladi. Hatto bu borada ayrim gullar doimiy qo'llanishi jihatidan ramziy obrazga aylanib, ifodalaydigan ma'nosi ham an'anaviylashib ketgan. Buni Ogahiy ijodi misolida ham dalillash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Фан, 1959. – 316 б.
2. Аминов Б.М. Этнография оламига саёҳат. – Т.: Фан, 1988. – Б. 29-35.
3. Зеленин Д. Тотемы-деревя в сказаниях и обрядах европейских народов. – М.-Л.: Наука, 1937. – 78 с.
4. Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. 1-жилд. Девон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1971. – 392 б.
5. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 232 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати Беш жилдлик. 1-жилд. А- Д. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, , 2006. – 680 б.

OGAHIY TAXMISLARI

Dilnavoz YUSUPOVA

filologiya fanlari doltori, dotsent

ToshDO'TAU

Annotatsiya: *Maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning muxammas janriga doir she'rlari tahlil qilinadi. Muxammasning taxmis turiga to'xtalib o'tilib, shoirning 10 ta taxmisi o'z g'azallariga bog'langanligi aniqlanadi. Taxmis va g'azal munosabatlari qofiya va mazmun fonida o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *musammat, tazmin, tasmit, g'azal, taxmis, qofiya, nido.*

Mumtoz adabiyotimiz tarixida musammatlarning o'ziga xos o'rin bor.

Ma'lumki, musammat arabcha *سمط* so'zidan olingan bo'lib, "ipga o'tkazilgan marvarid" degan ma'noni bildiradi. Musammat deganda, *musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustasne', muashshar* shakllarining umumiy nomi anglashiladi. Musammat she'r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Musammatlarning janr sifatida shakllanishi XI asrga to'g'ri keladi. Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damg'oniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o'rtalari) nomlari tilga olinadi. Musammatlarning vujudga kelishida g'azalda musajja' san'atini qo'llash hamda **muwashshah** va **zajal** kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lgan. Musammatlar dastlab *tasmit* nomi bilan atalgan [Orzibekov, 1976: 92].

Turkiy adabiyotshunoslikda musammatlar haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Muallif musammatlarning besh turini keltirib o'tadi: *murabba'*, *muxammas*, *musaddas*, *musamman* va *muashshar* [Taroziy, 1436: 20b].

Musammatlar yaratilish xususiyatiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1) *tab'i xud, ya'ni mustaqil musammatlar*;

1) *tasmit* – *g'azal asosida yaratiladigan musammatlar (tazmin musammatlar)* [Nosirov, 1976: 113].

Tab'i xud musammatda barcha misralar bir shoirning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor o'zga shoir she'rini asos qilib olmaydi, balki o'zi mustaqil ravishda musammat yaratadi. Tazmin musammatda esa muallif o'zga shoir yoki ba'zida (juda kam hollarda) o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib, musammat yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga 3 va undan ortiq misralar qo'shiladi. Maqta' bandeda tasmit bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida musammatlarning *murabba'*, *muxammas*, *musaddas* va *musamman* turlari keng tarqalgan.

Biz avvalgi izlanishlarimizda Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi *muxammas*, *musaddas* hamda musammanning yaratilish xususiyatlarini o'rganib chiqib, shoirning barcha musammatlari tazmin yo'nalishida ekanligi haqida ma'lumot bergan edik [Yusupova, 2013: 143–147; Yusupova, 2016: 55.]. Mazkur maqolamizda esa Ogahiyning turkiy tilda yaratilgan taxmislarining ayrim jihatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ogahiyshunoslikdagi ma'lumotlarga ko'ra, Ogahiy devonida jami 90 ga yaqin *muxammas* mavjud [Jumaxo'ja, 2019: 400]¹. Ularni yaratilish xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) *tab'i xud muxammaslar*;
- 2) *salaflar va zamondoshlar g'azallariga taxmis*;
- 3) *o'z g'azallariga taxmis*.

¹ С.Долимов томонидан 1972 йилда нашр этилган икки жилдлик Огаҳий "Девон"ида 72 та туркий мухаммас мавжуд.

Shoirning tab'i xud muxammaslari ishqiy mavzuda bo'lib, yorga murojaat tarzida yozilgan. Ularda nido san'ati yetakchilik qiladi. Salaflar va zamondoshlar g'azallariga bitilgan taxmislar esa shu g'azallardagi g'oya, mazmun hamda poetik uslubning uzviy davomi bo'lib, ulardagi g'azal mualliflari va bog'langan taxmislar miqdorini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	Taxmis bog'langan shoir nomi	Taxmislar miqdori
1.	Alisher Navoiy	30 ta
2.	Muhammad Fuzuliy	7 ta
3.	Rojiy Xorazmiy	7 ta
4.	Munis Xorazmiy	5 ta
5.	Muhammad Rahimxon Feruz	5 ta
6.	Umarxon Amiriy	2 ta
7.	Vaziriy	1 ta
8.	Dilovar	1 ta
9.	G'oziy	1 ta
10.	Xon (Ma'dalixon)	1 ta
	Jami	60 ta

Jadvaldan ma'lum bo'lyaptiki, shoir taxmisleri orasida eng salmoqlisi Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki Navoiyning ijodiy dahosi shoir she'riyati uchun ta'lim va ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Shoirning o'zi g'azallaridan birida bu haqda shunday deb yozgan edi:

*Ogahiy kom topgay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidin sanga...*

O'z g'azallariga tazmin, xususan, taxmis bog'lash mumtoz adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha kuzatilmagan. Navoiydan keyin esa bunday holat ba'zi shoirlar, jumladan Xiva adabiy muhiti ijodkorlarida ko'rinadi. Muhammad Rahimxon Feruz davridagi XIX asr Xiva adabiy muhitida temuriylar va Alisher Navoiy ijodiga qiziqish va ehtirom yuksak darajada bo'lib, Feruzshoh o'z faoliyati davomida Sulton Husayn Boyqaroga taqlid qilishga uringan va Alisher Navoiy singari o'z g'azallarining aksariyatiga o'zi taxmis bog'lagan [Erkinov, 2012]. Xuddi shu muhitning yirik vakili sifatida Muhammad Rizo Ogahiy ham Alisher Navoiy, Fuzuliy, Munis kabi ulug' so'z ustalariga muxammas bog'lagani holda o'zining 10 ta g'azalini beshlantirib, taxmis holiga keltirgan. R.Orzibekov Ogahiyning o'z g'azallariga bitgan taxmisleri sonini 7 ta [Orzibekov, 1976: 94],

R.Majidiy esa 9 ta deb keltiradi [Majidiy, 1963: 87]. Biz yuqoridagi ko'rsatkichni berishda S.Dolimov tomonidan 1972-yilda nashr etilgan ikki jildlik Ogahiy "Devon"idan foydalandik [Ogahiy, 1972].

Ogahiyning o'z g'azallariga bog'lagan taxmislarini g'azal bilan bog'liq holda quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	<i>O'z g'azallariga taxmis</i>	
	<i>Taxmisning 1-misrasi, hajmi</i>	<i>Taxmisga asos bo'lgan g'azalning 1-misrasi, hajmi</i>
1.	Tan erur ajab shahru, nafs ango asas, yo Rab (11 band)	Ishq zavqini yetkur jong'a har nafas, yo Rab (11 bayt)
2.	Bizga bahor jilvangiz sayri umidvorimiz (9 band)	Bog'u bahor aro ne tong bo'lmasa gar qarorimiz (11 bayt)
3.	Yetib jonimg'a gardun zulmidin yuz ming alam yolg'uz (11 band)	Qo'yubman to taalluq mahbasi ichra qadam yolg'uz (11 bayt)
4.	Rohati dunyo baloyi mubramig'a arzimas (7 band)	Dahr bazmu ayshi anduhu g'amig'a arzimas (7 bayt)
5.	Gul kabi yuzing uzra chiqti anbar afshon xat (9 band)	Bo'ldi la'li jonbaxshing uzra to namoyon xat (9 bayt)
6.	Qaddim xamini sarvi sitamkorima ayting (7 band)	Ko'nglum g'amini, do'stlarim, yorima ayting (7 bayt)
7.	Tangri adamdin qilg'oli mavjud to qoshu ko'zing (13 band)	Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo qoshu ko'zing (13 bayt)
8.	Uyotlig'dur Masiho bu kalomi ruhi foshingdin (7 band)	Bu kim charx oftobi evrulur har lahza boshingdin (7 bayt)
9.	Qahr aylab ul qotil minib yakroni bedod ustina (9 band)	Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jaddol ustina (9 bayt)
10.	Dahr bahori bazmining yo'q hadiyu karonasi (9 band)	Bog'i jahonki xushturur gulshani aysh xonasi (9 bayt)

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, Ogahiyning o'z g'azallariga bitgan 10 ta taxmisidan faqat bittasida g'azal va muxammas hajmi orasida tafovut mavjud. Odatda, g'azalga taxmis bog'lanayotganda uning bandlari soni g'azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba'zan shoirning xohishiga ko'ra, g'azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya'ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisdan ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo'lgan g'azal aslida hajman 11 baytdan iborat. Ammo taxmis bog'langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 9 band holiga keltirilgan. Xususan, quyidagi ikki bayt taxmisdan uchramaydi:

*Bir kecha yoshurun kelib, kulbamiz ichra ne bo'lar,
Bodai kom birla daf' aylasangiz xumorimiz.*

*Tortamiz intizingiz shomu saboh negakim,
Dahr aro sizdin o'zga yo'q yorimiz nigorimiz...*

Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, bu ikki bayt g'azalning maqta'dan avvalgi so'nggi baytlari (8-, 9-baytlar) bo'lib, g'azal hajman katta (11 baytli) bo'lganligi uchun shoir ularni taxmis bog'lashda tushirib qoldirgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, e'tibor qaratisa, tushirib qoldirilgan dastlabki bayt vasl sharobi bilan xumorni daf etish mazmunidadir. Shoir bu mazmunni 7-banddayoq ifoda etib bo'lganligi uchun uni yana davom ettirishni xohlamagan va 8-baytga taxmis bog'lamagan. Taxmisning 7-bandini keltiramiz:

*Barcha ulus visolingiz subhi tarab shiorida,
Sharbati kom ichib karam sog'ari zar nigorida,
Biz qolibon valek g'am zulmati shom torida,
Bodayi iltifotingiz nash'asining xumorida,
yerga yiqildi o'ylakim xoki tani nazorimiz.*

Mazkur taxmis tarkibini kuzatadigan bo'lsak, undagi ba'zi o'rinlar g'azal matnidan bir oz farqlanishini ko'ramiz. Xususan, mazmun talabiga ko'ra, g'azaldagi o'ninchi baytning o'rni o'zgarib, taxmisdagi yuqoriroqqa – 4-bandga ko'tarilgan. Shuningdek, g'azaldagi “Sog'ari bazmi vaslingiz nash'asining xumorida” misrasi taxmis tarkibiga “Bodai iltifotingiz na'asining xumorida” tarzida kiritilgan. Bu o'zgarish ham taxmis bitilmagan baytning mazmun taqozosi bilan tushirib qoldirilishiga sabab bo'lgan. Aynan shunday fikrni taxmis bog'lanmagan 9-bayt haqida ham aytish mumkin.

Yana bir sabab qofiya talabi bilan bog'liq. Tushirib qoldirilgan baytdagi qofiyaga e'tibor qaratsak, uning “xumorimiz” tarzida ekanligini ko'ramiz. Ogahiy taxmisning 7-bandidayoq ushbu qofiyani 4-misrada “xumorida” shaklida qo'llanganligi uchun uni takror holda qo'llashni istamagan va shu tarzda taxmis 9 band holatiga kelgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Muhammad Rizo Ogahiy Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi ulug' so'z ustalariga muxammas bog'lagani holda o'zining o'nta g'azalini beshlantirib, taxmis holiga keltirgan. Shoir muayyan mavzuga doir g'azal yozar ekan, oradan vaqt o'tib, shu mavzuga qaytishga ehtiyoj sezgan va shu tariqa o'z g'azallarini muxammas holiga keltirgan. Ogahiy o'z g'azaliga

taxmis bog'lash natijasida mumtoz adabiyotimizga Alisher Navoiy tomonidan olib kirilgan an'analarga yangicha ruh baxsh etib, o'zining izdoshlik salohiyatini namoyon etgan. Shoir taxmis bog'lash uchun o'z g'azallarini tanlar ekan, ulardagi ruhning yoshlikka xos jo'shqin va shiddatkor ekanligiga alohida e'tibor qaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1963.
2. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 6 жилдик / Нашрга тайёрловчи С.Долимов, 1-2-жилдлар. – Тошкент.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1972.
3. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976.
5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (1436 йилда кўчирилган, Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Elliott №-127 рақамли Қўлёзма).
6. Эркинов А. Культурный перфекционизм в хивинской придворной среде при Мухаммад Рахим-хане II как способ противостояния режиму русского протектората // История и культура Центральной Азии. – Токио, 2012.
7. Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. – № 2.
8. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: TAMADDUN, 2016.
9. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумахўжа. – Тошкент: O'zbekiston, 2015.
10. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. – Toshkent: Noshir, 2019.

OGAHIIY RUBOIYLARIDA TABIAT TASVIRI

Shoira AHMEDOVA

filologiya fanlari doktori, professor

G.TESHAYEVA

talaba, BuxDU

Annotatsiya. Maqolada Ogahiyning ruboiylarida tabiat tasvirining talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, ruboiy, bahor, shodlik, peyzaj, debocha.

Ruboiy adabiyotda, she'riyatda fikr va tuyg'ular ifodasining eng qulay shakllaridan biri sifatida alohida mavqega egaki, uning janriy imkoniyatlarini,

MUNDARIJA

OGAHY SHE'RIYATINI O'RGANISH MUAMMOLARI

HAQQULOVI Ibrohim. Haqiqat va abadiyat.....	3
JUMAXO'JA Nusratullo. G'azalda faqru fano talqini.....	11
ADIZOVA Iqboloy. "Ustina" radifli g'azal takomili tarixi.....	17
O'RAYEVA Darmonoy. JALILOVA Zarnigor. Ogahiy she'riyatida ma'shuqa go'zalligining gullar vositasida ifodalanishi.....	24
YUSUPOVA Dilnavoz. Ogahiy taxmisilari.....	29
AHMEDOVI Shoir. TESHAYEVA G. Ogahiy ruboiylarida tabiat tasviri.....	34
QUVVATOVI Dilrabo, SOHIBOVA Zarnigor. Ogahiy ijodida bahor tasviri.....	38
G'AYIPOV Dilshod. Ogahiy she'riyatidagi shohbaytlar haqida	43
MULLAXO'JAYEVA Karomat. Dardangiz devon sohibi.....	49
BEKOVA Nazzora. Bir musamman tahlili.....	53
NURIDDINOV Shahobiddin. Ogahiy g'azallariga komil muxammaslari.....	60
RAJABOVA Ma'rifat. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar.....	66
TILAVOV Abdumurod. Ogahiy ruboiylarida olam va odam talqini.....	70
SABITOVI Tojixon. Ogahiy ijodida Navro'z madhi.....	73
MATYOQUBOVA Tozagul. Ogahiy lirikasida pari obrazining poetik tasviri.....	76
AMONOVI Zilola. Ogahiyning Nasimiyga tatabbu'si.....	82
ASHUROVA Gulbahor. "Xazon yetkan nishonidur qirov gar tushsa bog' uzra..."	88
MAHMUDOV Jasurbek. UMAROVA Sohiba. Ogahiy va Tabibiy tahmidlari to'g'risida.....	92
AMONOV Shermuhammad. "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi Ogahiy g'azallariga yozilgan muxammaslar haqida.....	96
QUVVATOVI Dilrabo, O'ROQOVA Nafosat. Komil Avaz ijodida Ogahiy obrazi talqini.....	102
TOJIBOYEVA Ozoda. Ogahiy she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik.....	107
KARIMOV Islombek. Ishq-muhabbat mavzusi Ogahiy nigohida.....	111
RAHMONOVA Shahnoza. Ogahiyning mustazod yaratishdagi mahorati.....	115
KAZAKBAYEVA Dilrabo. Muhammadrizo Ogahiyning "Aziz jong'a" tarji'bandi xususida.....	120